16. Мадаев О. "Алпомиш" билан суҳбат.Т.: Маънавият, 1999.
17. Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. (Назарий курс матни). Т. 1999.
18. Мирзаев Т. Ҳоли Зариф билан суҳбатлар. 2011. 197-б.
19. Мирзаев Т. Эпос и сказатель. – Ташкент: Фан. – 410.
20. Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С. "Алпомиш" достонининг изоҳли луғати. Т.:2007.
21. Оқ олма, қизил олма қушиқлар. Т. 1972.
22. Расулова Зебинисо: Миф, маросим ва эртак. Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.
23. Турдимов Ш. "Гўрўғли" достонининг генезиси ва тадрижий босқичлари. Тшкент, Фан. 2011
24. Турдимов Ш. Ҳикмат хазинаси, Тошкент. "Ўзбекистон " 2016.
25. Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 2-том. - Тошкент: Фан нашриети. 1989.
26. Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. -Т.: "Фан", 2010.
27. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. Қарши, "Насаф" 1999
28. Эшонқулов Ж.Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. Тошкент: Фан, 2012.

**Axborot manbalari**

1. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.
2. www.lex.uz
3. lectures.ndpi.uz>lektions
4. news.uzreport.uz>news_9_u136022
5. www.ziyo-net.uz
6. www.literature.uz
7. www.kutubxona.uz
8. www.lectures.ndpi.uz
9. www.folklore.ru.
10. www.folksentr.ru

## 7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

| |
|---|
| O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202_-yil "25" "08" dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| "Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor S.Ashirboyev ________ (imzo) |
| **Tuzuvchi:** O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor bo'limi mudiri, filologiya fanlari doktori Sh.Turdimov ________ (imzo) |
| **Taqrizchilar:** Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, f. f.d., professor J.Eshonqulov ________ (imzo)<br>"Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi A.Tilavov ________ (imzo) |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Rektor Sh.Sirojiddinov

2022-yil "25" avgust

# O'ZBEK MIFOLOGIYASI

fanining

**fanining o'quv dasturi (sillabusi)**

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar

**Magistratura mutaxassislik:** 70230103 - Folklorshunoslik va dialektologiya

**Toshkent – 2022**

| Fan/modul kodi | | Fan/modul turi | | Ta'lim tili | | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 302O'M 1 7 | | tanlov | | o'zbek | | | | 2022/2023 | | |
| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 2 | O'zbek mifologiyasi | 7 | 6 | 90 | 40 | 0 | 50 | 0 | **120** | **210** |
| | **Jami:** | 7 | 6 | 90 | 40 | 0 | 50 | 0 | **120** | **210** |

## 1. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishning maqsadi – xalqning tafakkur tarzi ibtidosida ramz va timsollar tili bilan aytilgan mifologik dunyoqarashlar, bilimlar barcha urf-odat va marosimlar, san'at turlari, folklor va adabiyotning paydo bo'lishida, rivojlanishida zamin vazifasini o'tadi. Mifologik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o'tish jarayonlari o'ziga xos ravishda kechdi. O'zbek mifologiyasi fani ushbu jarayonlarni o'rganish asosida xalq badiiy tafakkuri rivoji bosqichlarini o'rganadi va tushuntiradi. Xalqimizning dunyo tamaddunidagi o'rnini uning boy mifologik tizimi, obrazlari, syujet tiplari, yetakchi motivlarini ko'rsatish orqali namoyon etadi. Bugungi folklor janrlari genezisi va badiiyatida miflarning o'rni va xizmatini aniqlaydi. Zamonaviy san'at va adabiyotda mifologik syujet va obrazlarning yangi talqinlari paydo bo'lishiga xizmat qiladi.
Fanni o'qitish jarayonida quyidagilar asosiy vazifalar qilib belgilangan:

- O'zbek mifologiyasini uning obrazlar tizimi yaxlit holda ko'rsatish,
- O'zbek folklori ibtidosida turgan mifologik tasavvur va obrazlarning, syujet tiplari va motivlar haqida magistrantga ilmiy bilimlarni berish;
- Miflarning folklor janrlari tarkibida o'ziga xos namoyon bo'lish yo'llarini ko'rsatish;
- Mifologik bilimlar va badiiy kodlarning ramziy timsoliy ma'nolarini magistrantlar ongiga singdirish mifologik tafakkurning obrazli bilim ekanligini yetkazish;
- Xalq dostonlari, ertaklari va qo'shiqlarida mifologik syujet, obraz va unsurlarning badiiy estetik sathda namoyon bo'lish yo'llarini ko'rsatish;
- O'zbek miflarning nafaqat xalq og'zaki ijodi, umuman, o'zbek milliy san'ati taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rsatish;
- O'zbek mifologiyasining jahon xalqlari mifologik tizimda o'ziga xos ravishda o'rin egallashini ilmiy asosda ko'rsatish va ularning insoniyat madaniy merosida tutgan o'rni haqida ma'lumot berish

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant.

- O'zbek mifologiyasi, mifologik asarlari genezisi va tarixiy taraqqiyoti, janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, janrlararo munosabat mezonlarini belgilash, adabiyot va folklor munosabati haqidagi ***bilimga ega bo'lish;***

- xalq og'zaki ijodining sinkretik san'at ekanligini, boshqa san'at turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatib berish. o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalq og'zaki ijodi davlat maqomiga erishganligi, shuningdek, folklor namunalarini tahlil qilish. ularni xalq orasidan yig'ish va tasniflash ***ko'nikmasini*** hosil qilish;

- talabalar o'zbek folklorshunoslik nazariyasining jahon folklorshunosligi merosida munosib o'rnini anglashi va baholash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar, shuningdek, mavzuga mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari vositasida olib boriladi.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida test yoki yozma ish shaklida o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma ish yoki test shaklida o'tkaziladi

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi. mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi. biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 2-SEMESTR

### 1. Ma'ruza mashg'ulotlari

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soat |
|---|---|---|---|
| 1. | Mif va mifologik tasavvurlar haqida nazariy qarashlar. Miflar tasnifi | Mif atamasining ma'nolari ochiladi. Mif bilan bog'liq nazariy qarashlar o'rganiladi. Mif tushunchasi izohlanib, uning xalq og'zaki ijodi asarlari tarkibiga badiiy estetik holatda o'tish jarayoni aytiladi. | 2 |
| 2 | Animizm, totemizm, fetishizm | Animizm, totimizm, fetishizm tushunchalari folklor materiallari asosida tahlil etiladi. Xalq marosimlari va folklorida bu xil tasavvurlarning ko'rinishlari o'rganiladi. Animizm asosida turuvchi shaman folklori va mifologiyasi masalalari yoritiladi. | 2 |
| 3 | Mif va shomon folklori. Shomon initsasiyasi va mifologik tasavvurlar. Shoman qo'shiq, aytimlari va mif. | Mif va shomon folklori munosabatlari yoritiladi | 2 |
| 4. | Mif va marosim folklori, mavsumiy marosimlar va mif. | Marosimlar folklori va ularning mifologik tasavvur va tushunchalar bilan bog'liq jihatlari o'rganiladi | 2 |
| 5 | Oilaviy marosimlar folklorida mif | Oilaviy marosimlar folklorida mif va mifologik unsurlar ochib beriladi | 2 |
| 6. | Mifologik tafakkurdan badiiy estetik tafakkurga o'tish jarayoni. Mif va epos. | Mifologik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o'tish jarayoni bevosita misollar orqali tahlil qilinadi. Epos, ertak, xalq lirikasida miflarning badiiy estetik sathda namoyon bo'lish holatlari, tadrijiy rivojlanish bosqichlari o'rganiladi. | 2 |
| 7. | Baxshichilik san'ati va mifologik tasavvurlar | Baxshichilik san'ati va mifologik tasavvurlar qiyosiy tahlillar asosida yoritiladi | 2 |
| 8. | Mif va qahramonlik dostonlari | "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkum dostonlari syujeti, obrazlar tizimida mifologik tasavvurlarning o'rni yoritiladi. Mifologik qahramonlarni epik qahramonga evrilish bosqichlari ko'rsatiladi. | 2 |
| 9 | Mif va romanik dostonlar | Mif va epos munosabati yoritilib, o'zbek xalq mifologik tasavvurlar tizimi tiklanadi | 2 |
| 10. | Mifologik afsonalar | Mifologik afsonalar asosida dars olib boriladi. Afsonalar mag'zidagi miflarning badiiy sathdagi holati o'rganiladi. Osmon yoritgichlari, tog', daraxt, suv, olov va hayvonlar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar misolida mavzu tahlil etiladi | 2 |
| 11. | Mif va ertak: hayvonlar haqidagi ertaklari va mif | Mif va ertak materiallari tahliliga ko'ra ertaklarning mifologik qatlam bilan bog'liq ma'no ko'lami ochiladi. Ertak qahramonlari, syujet va motivlari talqinida mifologik tasavvurlarning o'rni yoritiladi. | 2 |
| 12. | Sehrli ertaklar va mif. Mif va qo'shiq | Mif va ertak materiallari tahliliga ko'ra ertaklarning mifologik qatlam bilan bog'liq ma'no ko'lami ochiladi. Ertak qahramonlari, syujet va | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | motivlari talqinida mifologik tasavvurlarning o'rni yoritiladi. | |
| 13. | Maqol va topishmoqlardagi mifologik dunyoqarash | Maqol va topishmoqlardagi mifologik dunyoqarash ko'rsatiladi. Topishmoqlar tarkibida yashirin kelgan narsa va predmetlarning obrazlari bevosita mifologik tasavvurlarga bog'lanish yo'llari yoritiladi. | *2* |
| 14. | Mifologik obrazlar tasnifi. | Hizr, chilton, dev, pari, ajdar, ilon, alvasti, yalmog'iz, doroko'z, ozitqi, humo, semurg', asqartog' va boshqa mifologik obrazlar xususida batafsil ma'lumotlar beriladi | *2* |
| 15. | Homiy eran obrazlar: Xizr, Shohimardan, Bobo Qanbar, Chilton, Momolar. | Mifologik obrazlar haqida ma'lumot beriladi | *2* |
| 16. | Mifologik makon va hududlar: Asqartog', Susambil, Chambil, Bog'i eram, Ko'hi Qof, Balo tog', Er Xizr dashti. | Mifologik obrazlar haqida ma'lumot beriladi | *2* |
| 17 | Demonologik obrazlar: Alvasti, Dev, Pari, Ozitqi (Etma), Qora qura, Yalmog'iz, Suv parisi, Doroko'z, Jez tirnoq | Mifologik obrazlar haqida ma'lumot beriladi | *2* |
| 18 | Mifik mavjudodlar: Semrug', Qora qush, Ajdar, Yuho, Suv oti, | Mifologik obrazlar haqida ma'lumot beriladi | *2* |
| 19. | Ulkan odamlar: Ankur, Tankur, Olonqasar, Oj | Mifologik obrazlar haqida ma'lumot beriladi | *2* |
| 20. | Mif va tomosha san'ati. Mif va askiya. | Xalq tomosha san'ati namunalarida mavsumiy marosim va marosim miflarining o'rni yoritiladi, badiiy estetik vazifalari tahlil etiladi. | *2* |
| | Jami | | ***40*** |

**2. Amaliy mashg'ulotlar**

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soat |
|---|---|---|---|
| 1 | Xalq hayoti va folklorida animistik, totemistik hamda fetishizm izlari, misollar va ularning tahlili | Mifologik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o'tish bosqichlari folklor janrlari misolida ochib beriladi. | 2 |
| 2. | Shoman folklor janrlari va shomon marosimlari misolida mifologik unsurlar tadqiqi | Matn tahlili orqali mifologik unsurlar yoritiladi | 2 |
| 3. | Mavsumiy marosimlar: Navro'z marosim, yomg'ir chaqirish, to'xtatish va shamol chaqirish hamda to'xtatish qo'shiq-aytimlarida mifologik tasavvur bilan bog'lik qarashlar | Matn tahlili asosida mavsumiy marosimlar mohoyati ko'rsatiladi | 2 |
| 4. | Yor-yor, o'lan, lapar qo'shiqlarida mifologik tushinchalar, obrazlarning qo'llanishi | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 5. | Mifik baxshi obrazi va baxshilik san'ati talqinlari | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 6. | "Alpomish" dostonida mifologik tafakkur ildizlarini ajratish, sharhlash | Badiiy matn tahlili | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | "Alpomish" dostonidagi asosiy obrazlarning mifologik ildizlarini ko'rsatish, tahlil etish. | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 8. | Tush motivi va uning mifologik asoslari | Ilmiy matn tahlili | 2 |
| 9. | "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining syujeti va o'lib tiriluvchi tabiat haqidagi mif | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 10. | Quyosh turkum miflari va "Go'ro'g'li" dostoni | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 11 | "Malik ayyor" dostoni va o'zga olam – Torkiston haqidagi mifologik tasavvurlar tizimi talqini | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 12. | "Go'ro'g'lining g'oyib bo'lishi" dostoni va mifologik olam haqidagi tasavvurlar talqini | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 13. | Ertaklarda bo'ri va tulki obrazining mifologik asoslari | Badiiy matn tahlili | 4 |
| 14. | "Tuxumboy bilan Buyrakboy", "Qumursqa polvon", "Qo'ng'iz bekach" ertaklari va mifologik tasavvurlar tahlili. | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 15. | Hayvonlar haqidagi ertaklarning mavzu ko'lami | Badiiy matn tahlili | 4 |
| 16. | Sehrli ertaklarda mif. Mifologik obrazlar, talqinlar | Ilmiy matn tahlili | 4 |
| 17. | Mifologik afsonalar tahlili | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 18. | Mifologik obrazlar tahlil etiladi | Badiiy matn tahlili | 4 |
| 19. | Mahmud Koshg'ariyning "Devonulug'otit turk", Rabg'uziyning "Anbiyolar qissasi" asarlari va mifologiya | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 20. | Xalq qo'shiqlari va mifologik tasavvur | Ilmiy matn tahlili | 4 |
| | **Jami** | | **50** |

**3. Mustaqil ta'lim:**

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soat |
|---|---|---|---|
| 1. | T.Mirzayevning "Xalq baxshilarining epik repurtuari" kitobini o'qing. Undagi mifologiyaga oid qarashlarni tahlil qiling | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 2. | V.M.Jirmunskiy, X.T.Zarifovlarnig "Узбекский народный героический эпос" asarini tahlil qiling. | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 3. | "Мифы народов мира" kitobidagi turkiy miflarga doir qarashlarni tahlil qiling . | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 4. | H.Zarifovning "O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar" kitobidagi doston va mif munosabatlarining yoritilishini ko'rsating | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 5. | G'.Akramov "Mifologiyaning ayrim epik janrlar bilan o'zaro munosabati" asaridagi miflarning epik janrlardagi ko'rinishlari haqidagi qarashlarini izohlang | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 6. | M. Jo'rayev, Sh Shomusarovlarning «O'zbek mifologiyasi va arab folklori» kitobini o'qing, o'zbek mifologiyasiga doir qarashlarni tahlil qiling | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 7. | Sh.Turdimov, J.Eshonqulovlarning "Navro'z nashidasi. Navro'z bayrami bilan bog'liq qo'shiqlar, g'azallar, she'rlar" asarini o'qing, undagi mifodlogiyaga oid qo'shiqlar tahlilini izohlang | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 8. | Lord Albertning «Сказитель» kitobidagi mif nazariyasiga oid qarashlarni o'zbek miflari misolida tahlil qiling | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 9. | «Irq bitigi – Ta'birnoma» kitobidagi mif belgilari | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 10. | T.Mirzayevning «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari" asari tahlili | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 11. | A. Musaqulovning «O'zbek xalq lirikasi» asari tahlili | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 12. | M. Cejidovning "Azerbajchan mifik tefekkurunun gajnaglary" asarida mifologiyaga oid nazariy qarashlarni tahlil qiling | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 13 | J. Eshonqulovning "Mif va badiiy tafakkur" kitobi tahlili | Ilmiy asar tahlili | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 14. | M. Jo'rayevning «O'zbek samoviy afsonalari» asari tahlili | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 15. | M. Jo'rayevning «O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar» kitobi tahlili. | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 16. | Sh. Turdimovning "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari" kitobi tahlili | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 17. | J.Eshonqulovning "Epik tafakkur tadriji" kitobini o'qinng va tahlil qiling | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 18. | M.Jo'rayev, M.Narziqulovalarning "Mif, folklor va adabiyot" kitobidagi o'zbek mifologiyasi va badiiy adabiyot munosabatlari haqidagi qarashlarni tahlil qiling | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 19. | J. Eshonqulovning "O'zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari" nomli dissertatsiya ishidagi mavzu doirasidagi qilingan yangiliklarni yoritib bering | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 20. | Xalq ertaklarini o'rgangan folklorshunos olimlar faoliyati. | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 21. | Sh. Turdimovning "Etnos va epos" asari tahlili | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 22. | K.Imomovning «O'zbek xalq prozasi poetikasi» asari tahlili | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| 23. | M Qo'shmoqovning "Baxshilar xazinasi" asari tahlili | Ilmiy asar tahlili | 4 |
| 24. | D.O'rayevaning "O'zbek motam marosimi folklori" asari tahlili | Ilmiy asar tahlili | 6 |
| | **Jami:** | | ***120*** |

## 6. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar:


1. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –Toshkent: "Fan", 2009.
2. Jo'rayev M. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDMI, 2008.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: "Musiqa" nashriyoti, 2010.
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: "Mumtoz so'z", 2010
5. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. –Toshkent: "Aloqachi", 2008.
6. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek folklori. –Toshkent: "Tafakkur gulshani", 2020.


### Qo'shimcha adabiyotlar


1. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017-yil, 8-fevral).
3. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2017
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017-yil, 21-aprel).
5. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. -Toshkent, Fan, 2006.
6. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). T.:1999.
7. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. -Toshkent: Fan, 2010.
8. O'zbek xalq og'zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom, 2015, 2016.
9. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
10. Turdimov Sh. Hikmatlar xazinasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
11. Жўраев М. Ўзбек халқ тақвими ва мифологик афсоналар. – Тошкент, 1994.
12. Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор, адабиёт. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.
13. Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки прозаси.-Т.: Фан, 1981.
14. Кунтуғмиш. Т.,1976.
15. Латифалар.Т., 1971.